



ILK O'RTA ASR DAVRNING KOSTYUM TURLARI VA ULARNING BICHIMLARI

M.Y.Suvonova

Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi:
suvonova8100@gmail.com

U.Q.Murodboyeva

Qarshi davlat universiteti talabasi:
umidamurodboyeva3@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14498962>

Annotatsiya: Ayollarning o'ziga xos kiyimlari turiga yopinchoqlar va paranjilar bo'lgan. Ko'cha kiyimi sifatida ayollar yopinchoq kiyishgan. U keng, to'g'ri to'rtburchak shaklli matodan qilinib, gavdani berkitardi. Yopinchoqni boshga yoki yelkaga tashlab yurishgan, uchlarini esa qo'l bilan ushlab turishgan. Yuzi ochiq qolar, ammo kerakli paytda yuzni ko'zgacha berkitishar edi. Shunday yopinchoqlar noqulay bo'lganligi uchun ayollar ko'chaga chiqqanda boshga choponni tashlab yuradigan bo'lishdi. Miniaturadagi tasvirlarga ko'ra ayollar kostyumining nomlari, turlari, shakli, bichimi, bezagi erkaklarnikiga o'xshash bo'lgan. Bugungi zamonaviy kiyimlarimizda ham ilk o'rta asr kostyumlarining bichimlaridan foydalanib, o'ziga xos liboslar yaratib kelinmoqda.

Kalit so'zlar: Bosh kiyimlari, bel kiyimlari, ust kiyim, kostyum turlari, chopon, bichimlar, oyoq kiyimlari, belbog'lar, kamarlar, yopinchoqlar.

O'rta Osiyo insoniyat sivilizatsiyasining o'choqlaridan biri hisoblanadi. Antik davrda yashab o'tgan insonlarning kiyinishi jihatdan ham ancha qadimiy hisoblangan.

O'zbekiston hududida yashagan eng qadimgi ajdodlarimizning kiyimlari ham dunyoning boshqa mintaqalaridagi qadimgi kishilar kiyimlari kabi tabiiy iqlim, turmush sharoitlari va urug'-qabila an'analari asosida shakllangan. O'tmish kiyim-kechagi, ularning shakllari, mahalliy xususiyatlari va ularga ishlatilgan matolar respublika hududidagi arxeologik yodgorliklardan topilgan devoriy rasmlar, haykalchalar, mayda naqshlar, torevtika (metallga ishlangan relief), yozma manbalarda, qo'lyozma kitoblarga ishlangan mo'jaz tasvir miniatyuralarda ham aks etgan.

Kiyimlarning dastlabki shakl taraqqiyoti to'qimachilikning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, O'rta Osiyo hududida to'qimachilikning vujudga kelishi yangi tosh asri — neolitga borib taqaladi. Qadimda joriy etilgan tangalar, idishlar, qurol-aslahalarga solingan rasmlarda ham tabiat manzaralari, odam va hayvonlar tasvirini ko'ramiz. Qadimiy O'rta





Osiyo san'atiing yodgorliklari antik davri kiyimlarining turlari bilan tanishishga keng imkoniyat beradi.

Endi esa, Qadimiy O'rta Osiyo ayollar kostyumi haqida gapiradigan bo'lsak, ular, yunonsimon, skifsimon va hindsimon bo'lgan. Ular ichki va ustki: yelka, bel, bosh va oyoq kiyimlardan iborat bo'lgan. Ayollar ko'ylagining ikki turi bo'lib, birinchisi - tunikasimon bichimli ko'kraging tagida va belida belbog' bilan bog'langan to'g'ri ko'ylak bo'lgan. Uning yoqa o'mizi dumaloq bo'lgan, oldi esa tomchisimon kesimli bo'lgan. Ko'ylakni ikkinchisi yunon turiga o'xshash bo'lib, bo'y baravar mato parchasi yelkada to'g'nog'ich bilan birlashtirilgan, etagining yon burchaklari tugunga bog'lab qo'yilar, etagi esa erkin tushib, drapirovkalanardi. ya'ni hozirgi kiyimlarimizda "taxlamalar" deyiladi. Bu ko'ylak belida yoki ko'kragini tagidan belbog' bilan bog'lanadigan bo'lgan. Ustki kiyimlari kaftanlar va yopinchoq bo'lgan. Kaftan bichimi tunikasimon bo'lgan, shakli to'g'ri yoki gavdaga yopishib turgan. Top yengi uzun, ba'zan, ko'ndalang taxlamalilari ham bo'lgan. Kaftanlar tik yoki diagonal yo'nalishida qavilgan. Yoqa o'mizi va oldi to'qilgan tasma bilan bezatilgan. Ko'ylak yoki kaftan ustidan yopinchoq kiyishgan. Ular bo'y qatori to'g'ri turtburchak matodan qilinib, yelkaga tashlanadigan bo'lgan, old uchlari esa to'g'nog'ich bilan birlashtirilgan. Bel kiyimi uzun, etikka kirgizilgan ishtonlar va ular ko'ylakning tagidan ko'rinishi mumkin bo'lgan. Aynan, erkaklar kiyimlari ham yelka va bel, ustki va ichki kiyimlardan iborat bo'lib, yelka kiyimi ichki ko'ylak va ustidan kiyiladigan kaftandan iborat bo'lgan. Ularning bichimi tunikasimon, shakli to'g'ri edi. Kiyim gavdaga sal yopishib turardi. Uzunligi bo'ksasidan pastroq yoki tizzagacha edi. Uzun yengi tor yoki ko'ndalang taxlamali bo'lgan. Belga belbog' bog'lashardi. Xuddi bugungi kunimizda otabobolarimiz belbog' bog'laganlari kabi. Bel kiyimi tor yoki ko'ndalang taxlamali ishtonlardan iborat edi. Bosh kiyimlari yassi yoki konussimon qalpoqlar bo'lgan. Oyoq kiyimlari esa yumshoq, tepasi qaytarilgan etiklar edi. Demak, ko'rinib turibdiki, o'sha davrning qadimiy kiyimlari hozirgacha ham bizda kiyilmoqda. Ayniqsa, biz yashayotgan Qashqadaryoda hozir ham bobolarimiz bellariga belbog'larini taqib, etiklarini kiyib, mehnat qilishadi. Bu kiyimlarimizni qadimdan otabobolarimiz kiyib kelishgan va kiyishmoqda. Ammo O'rta Osiyoliklarning kiyimlarining shaklida, kiyinish odatlarida, kiyim turlarida mahalliy odatlariga oid xususiyatlari mavjud bo'lgan va u juda keng hamda boy tarixga egadir.

Farg'ona vodiysidagi Munchoqtepadan ilk o'rta asrlarga oid erkak, ayol va bolalar ust-boshlari topilgan. Ayollar ko'ylagi uzun bo'lib, ipakdan tayyorlangan





va etagi to'pig'igacha tushgan, etagining eng quyi qismidan ikki yon tomondan 10-15 sm qirqib qo'yilgan, bellariga esa kamar va belbog' bog'lab zeb berilgan. Bolalar kiyimi ham ipakdan kalta qilib tikilgan bo'lib, belidan sal pastga tushib turgan. Ko'ylak etagidan ya'ni beli atrofidan ikki tomondan 10-15 sm qirqib qo'yilgan. Yoqalari to'g'ri va belida maxsus tasma-belbog'i bo'lgan. Tashqi choklari ensiz lenta bilan tikib mustahkamlangan. Qiz bolalar ko'ylagining ko'krak qismi, yengining uchi va etagi maxsus qadama gullar bilan bezatilgan. O'ng qo'l tomonidan esa o'yma cho'ntak tikilgan. Kiyimga munchoqlar tikilib zeb berilgan, yengi va ko'krak qismiga mayda marjondan naqshlar ishlangan.

O'zbekiston hududida yashaydigan xalqlarning kiyim-kechaklari uzluksiz o'zgarishi va rivojlanishi faqat shu hududning ijtimoiy-siyosiy va etnik tarixi bilan bog'liq bo'lmay, balki butun Markaziy Osiyo tarixi va ijtimoiy hayoti bilan ham bog'liqdir. Devoriy suratlardan ma'lum bo'ladiki, ilk o'rta asrlarda mahalliy aholi-ning kiyimlari bichimi, asosan, bir xil bo'lgan. Yengsiz, uzun, ba'zi hollarda yengi keng qilib bichilgan. Kiyimlarning yon tomonida, odatda, yirmoch-qiyiq joyi, yonlama yoqasi bo'lganki, bu holni o'zbek xalqining bugungi kundagi kiyim-kechaklarida ham kuzatish mumkin. Endi, ozgina bosh kiyimlari haqida gapiradigan bo'lsak, bosh kiyimlarining turlari har xil bo'lgan. XV—XVIII asrlarning miniatyuralariga binoan har xil shaklli matodan tikilgan telpaklar edi. Uni aholining barcha tabaqalari uyda va ko'chada kiyishgan.

Hindlardan farqli ravishda, O'rta Osiyoda ularni salla yoki bog'ichsiz kiyishgan, gardish qaytarmalari aslzodalar yuzining markazida joylashardi, quyi tabaqalar bu bosh kiyimini erkinroq kiyishardi. Sallani aholining barcha tabaqalari kiyishgan. Salla - O'rta Osiyoda asosiy bosh kiyim hisoblanardi. Uni aqliy mehnat bilan shug'ullangan aholi kiyishgan. Salla - rasmiy va tantana bosh kiyim deb hisoblanar. O'rta Osiyo sallasining kattaligi o'rtacha bo'lgan. O'rash usullari bir necha xil bo'lib, deyarli murakkab emas edi. Diniy va aqliy mehnat arboblari sallaning bir uchini iyagini ostidan o'tkazishardi. Odatda, salla sidirg'a va yo'l-yo'l matodan qilinar. Erkaklar oyoq kiyimlari etiklar va kavushlar bo'lgan.

Biz, ilk o'rta asr davrining kostyumlari haqida qisqacha gapirib o'tdik, aslida esa bu haqda ma'lumotlar juda ham ko'p. Keyingi maqolalarimizda yana bu mavzuga albatta qaytamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Xasanboeva G.K."Kostyum va moda tarixi".Toshkent -1999 y.
- 2.X.X.Kamilova,N.A.Isaxojayeva, K.R.Fuzailova "Kostyum kreativ grafikasi"2017.
- 3.Xasanboyeva G.K. "Kompozitsiya asoslari" Ma'ruza matni.

